

O'SMIRLARNI OILAGA TAYYORLASHDA INNOVATSION

TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Husniddin Do'sbekovich NORQULOV,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti,
Toshkent, O'zbekiston

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ ПОДРОСТКОВ К СЕМЬЕ

Хусниддин Дусбекович НОРКУЛОВ,
Кандидат педагогических наук, доцент
Научно-исследовательский институт «Махалла и семья»
Ташкент, Узбекистан

PEDAGOGICAL ASPECTS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PREPARING TEENAGERS FOR THE FAMILY

Husniddin Dusbekovich NORKULOV,
Candidate of pedagogical sciences, associate professor
“Makhalla and family” scientific research institute
Tashkent, Uzbekistan

UDC (УО'К, УДК): 37:013:78:001:895

Iqtibos keltirish uchun (Для цитирования)
For citation:

Norqulov H. D. O'smirlarni oilaga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — B. 133-141.

<https://doi.org/10.36078/1683277776>

Received: February 20, 2023

Accepted: April 17, 2023

Published: April 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash mazmuni va g'oyalarini umumta'lim mакtablarida o'qitiladigan o'quv fanlari mazmuniga integratsiya qilish, shuningdek, o'quv intizomining maqsad va vazifalarini oldindan shakllantirish, pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida o'qitish, pedagogik jarayonni innovatsion boshqarish, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari ko'rib chiqildi. O'yin texnologiyasi, vebinар texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, kompyuter axborot texnologiyalari; relyatsion texnologiyalar kabi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari ilgari surildi. Maqolada, shuningdek, vaqtga bo'lgan ehtiyoj o'spirinlarning jamiat hayotiga kirishi, ularning faolligini oshirish, ularni hayotdagi qiyinchiliklarni yengish ruhida tarbiyalash, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: oila tarbiyasi; o'smirlarni oilaga tayyorlash; innovatsion texnologiyalar; ma'naviy barkamol farzand; ota-onा; nikoh; oila mustahkamligi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы интеграции содержания и идей подготовки подростков к семейной жизни в содержание учебных предметов, преподаваемых в общеобразовательных школах, а также вопросы предварительного формулирования целей и задач учебной дисциплины, обучения с помощью педагогических и информационных технологий и инновационного управления педагогическим процессом, а также внедрения личностно-ориентированных инновационных технологий, таких как игровая технология, технология вебинаров, технология

проблемного обучения, компьютерные информационные технологии; поставлены вопросы использования образовательных технологий, таких как реляционные технологии. В статье также подчеркивается, что потребность времени заключается во вхождении подростков в жизнь общества, повышении их активности, воспитании их в духе преодоления жизненных трудностей, обеспечении их социализации.

Ключевые слова: семейное воспитание; подготовка подростков к семье; инновационные технологии; духовно зрелый ребенок; родители; брак; стабильность семьи.

Abstract. The article deals with the issues of integrating the content and ideas of preparing adolescents for family life in the content of the subjects taught in secondary schools; preliminary formulation of the goals and objectives of the academic discipline; learning with the help of pedagogical and information technologies and innovative management of the pedagogical process; the introduction of student-centered innovative technologies, such as game technology, webinar technology, problem-based learning technology, computer information technology; the questions of using educational technologies, such as relational technologies. The study also emphasizes that the need of the time goes back to integrating adolescents into society, increasing their activity, educating them in the spirit of overcoming life's difficulties, and ensuring their socialization.

Keywords: family education; preparation of teenagers for family; innovative technologies; spiritually mature child; parents; marriage; family strength.

Kirish. O'smirlar uchun mustaqil hayot mas'uliyatli, qiyin davrdir. Bu davr yangi ijtimoiy aloqalar, kelajak uchun ko'rsatmalar, ijtimoiy moslashuv kabi qator jarayonlarni bosib o'tishni talab qiladi. Albatta, bu kabi jarayonni bosib o'tish uchun o'smirlarni bolalik davridayoq ular uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish lozim. O'smirlarni jamiyat hayotiga integratsiya qilish, ularda faollikni kuchaytirish, hayotiy qiyinchiliklardan hayiqmaslik hissida tarbiya qilish, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash davr talabidir. O'smirlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga, xatti-harakatlarni o'zlashtirishga yaqindan yordam berish lozim. Shu sababdan maktab yoshidagi o'smirlar bilan maqsadli ishlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy barkamol, aqliy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom farzandni tarbiyalash masalasi asrlar davomida insoniyat jamiyatining oliv maqsadi bo'lib kelgan va bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy tarbiya maktabining ildizlari juda teran, zabardastdir. Ayniqa, oilada o'smirlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan.

Bu borada Prezidentimiz, "*Yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz*" (1) — degan g'oyalarni ilgari surgan.

Asosiy qism. Bugungi kunda o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiy faollikni shakllantirish muhim

ahamiyatga ega. O'smirlarda ma'naviy tarbiyaning yetishmasligi, hayotiy qadriyatlarni anglamasligi, o'zlarining oilaviy turmush tarzini me'yor talablari darajasida qura olmasliklari, ko'plab ijtimoiy munosabatlarni tushunmaslik holatlari ko'p uchraydi.

Bolalari bilan do'st, ularga diqqat-e'tibor bilan qaraydigan, qayg'ulariga hamdard, xursandchiliklarini baham ko'ruchchi, talablarida sabrli, bolalariga doimiy ma'naviy tomondan ko'maklashuvchi ota-onalargina o'zlarining farzandlariga haqiqiy ma'noda namuna bo'la oladilar (2).

Har bir ota-onal farzand tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. *"Shuning uchun ham ota-onal bolalariga doimo yaxshi va go'zal o'rnak bo'lishlari lozim. Barcha yaxshi sifatlarni namoyish qilib, barcha yomon sifatlardan uzoqda bo'lishlari kerak. Ota-onal bolalariga shaxsiy namuna ko'rsatishlari bilan birga, ularga odoblarni qunt bilan, zerikmasdan o'rgatib borishlari zarur"* (3, 343).

Shunday ekan, oilada ruhiy xotirjamlik, samimi munosabat, ota-onal obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, o'g'il yoki qiz deb ajratmaslik, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash ota-onalarning psixologik va pedagogik bilimlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ajdodlarimiz *"Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir. O'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmoq otalarga farzi ayn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmoq farzi kifoyadur"*, (4, 31) — deganlar.

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash asosan ota-onalar va umumta'lim maktablarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Umumiyo o'rtalim maktablaridagi amaliyotchi psixologlar o'smirlarni oilaviy hayotga ruhiy jihatdan tayyorlashda sinf rahbari, fan o'qituvchilari hamda ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishlari kerak bo'ladi. O'smirlarda oilaviy hayot qurish borasida kuzatiladigan qo'rqish hissi psixologlar tomonidan trening, suhbatlar, test sinovlari o'tkazilishi orqali har qanday muammo va to'siqlarni qiyinchiliksiz yengib o'tish mumkin.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham ota-onal burchi haqida shunday deyiladi: *"O'g'il, qiz tug'ilsa yaxshi bilki bas, uyda tarbiya qil, boshqa yerdamas. Ustozning yaxshisin tanla albatta, o'g'il, qiz pok o'sar, yomondan chetda."*

O'g'il, qizga o'rgat, bilim ham odob, baxtga yor bo'lur u, bo'limg'ay xarob, o'g'ilga xotin, qizni erga ber, qayg'u g'amsiz yana, ayo qutli er. O'g'il topsin san'at hunarda kamol. Bu hunar bilan u terar berar mol, o'g'ilni tergab tur: bo'sh qo'yma zinhor. Benaf, bebosh bo'lar, yugurar bekor" (5, 35).

O'smirlar bilan tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmun-mohiyatini yuqorida qayd etilgan omillar tashkil etadi. Umumiy o'rta ta'lif maktablari, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar jarayonida o'smirlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlash bosh maqsad etib belgilanadi.

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash mazmuni va g'oyalari umumiyligi o'rta ta'lif maktablarida o'qitiladigan o'quv fanlari mazmuniga singdirish samarali natijalar beradi. Shuningdek, o'quv fanining maqsad va vazifalarini oldindan loyihalashtirish, pedagogik va axborot texnologiyalar vositasida o'qitilishi hamda pedagogik jarayonni innovatsion boshqarish orqali erishiladi. Pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlashda shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiya, ya'ni o'yin texnologiyasi, vebinar texnologiyasi, muammoli o'qitish texnologiyasi, kompyuterli axborot texnologiyasi, munosabat texnologiyasi kabi ta'lif texnologiyalaridan foydalanish kafolatlangan natijaga erishish imkonini beradi.

Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"* (6, 14).

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lif jarayoni, shuningdek, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning shakl va metodlaridan foydalanishni samarali tashkil etishda o'qituvchilar, ota-onalar va mahallaning o'mi ahamiyatlidir. Bu borada o'smirlarni bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, maktabdagagi do'stlari, ustozlari, ayniqsa, ota-onalariga nisbatan hurmatda bo'lish darajasini, oiladagi o'rnini, mahallada yurish-turishi, ularning fiziologik-gigiyenik va pedagogik-psixologik jihatlarini aniqlash kerak bo'ladi.

O'smirlarning qiziqishlari, ichki ehtiyoji va maqsadlarini tarbiyaning ma'lum bir metodlari orqali ajratib olish va bu jarayonga o'qituvchini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ta'lif-tarbiyaning samarali shakl, metod va vositalardan samarali foydalanish, innovatsion pedagogik texnologiyaning ilg'or, maqbul jihatlarini o'quv-tarbiyaviy ishlar mazmuniga singdirish orqali o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning tarbiya mezonlarini aniqlash va natijasini baholash, monitoring qilish zarur.

O'smirlilik davridagi 13-15-16 yoshli o'quvchilarga erta oila qurishning salbiy oqibatlari, jinsiy tarbiya va reproduktiv salomatlik to'g'risida batafsil ma'lumotlar ularning yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda singdirilmaganligi juda katta salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Natijada esa ular orasida

oila qurgandan keyin ajralishlar, nogiron bolalarning tug‘ilishi hollari kuzatilmoqda. Achinarlisi, hozirgi kunda o‘smlar orasida erta nikoh, istalmagan homiladorlik hollari tez-tez uchramoqda.

Y. I. Zritneva kelajak avlod oilaparvar vakilini tarbiya qilishning nazariy asoslariga to‘xtalib: “*Bu jarayonning asosiy g‘oyasi o‘quvchilarida psixologik darajada oila-nikoh munosabatlarining tashkil etilishi, saqlanib qolishi va mustahkamlanishi asosiy masala hisoblanadi*” (7, 246), — deb ko‘rsatib o‘tgan.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi” (8, 169). **Innovatsiya** — bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko‘rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish va e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shu vaqtgacha ta’lim maqsadlari o‘quvchilarning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirib olishlariga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalar ularni ijodiy faollikka, egallanishi lozim bo‘lgan bilimlarni o‘zları qidirib topishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga o‘rgatishlari bilan ahamiyatlidir. Bu, o‘z navbatida, o‘smlarda qiziqishni oshiradi, mustaqillik sari yetaklaydi hamda oilaviy hayotga ham tayyorlab boradi.

Innovatsion texnologiyalar asosida Prezidentimiz g‘oyasi asosida tashkil etilgan innovatsion maktabda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ma’naviy-axloqiy asoslari, oila iqtisodiyoti, ro‘zg‘or va byudjetini yuritish, oiladagi ijtimoiy rollar va ularni anglagan holda munosabatlar qurish, er-xotin munosabatlaridagi “nozik” masalalar, nikoh munosabatlari va reproduktiv salomatlik, gender munosabatlari, oilaviy munosabatlarni uyg‘unlashtirish va oilaviy nizolarning oldini olish, oilada muloqot madaniyati, oilada huquqiy munosabatlar, oilani idora etish, oila “siyosati” kabi yo‘nalishlarda master-klasslar o‘tkaziladi.

Innovatsion maktab qoshida yoshlarda an’anaviy oilaviy qadriyatlarga hurmat hissini kuchaytirish, oilaning tarbiyaviy va madaniy-ilmiy ta’sirini oshirish maqsadida oila mavzusiga bag‘ishlangan ta’sirchan video va animatsion filmlar, videoroliklar, infografik lavhalar asosida Mediateka ham tashkil etilgan. Demak, ushbu innovatsion maktab ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smlarni oilaviy hayotga tayyorlashda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish biz xohlaymizmi yoki yo‘q bu davrning dolzarb masalasi hisoblanadi. Shuningdek, bu borada masofaviy ta’lim tizimidan foydalanish bo‘yicha model ishlab

chiqilib, bunda oilaviy hayotga tayyorlash yuzasidan 4 ta yo‘nalish, bo‘yicha, ya’ni “*Oila psixologiyasi*” yo‘nalishi bo‘yicha, “*Turmush qurgan yosh kelinlarni oilaviy hayotga tayyorlash*”, “*Turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash*”, “*Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash*” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua tayyorlandi va mazkur platformaga joylashtirilib, foydalanishga topshirildi.

MOODLE masofaviy ta’lim tizimidan foydalanish uchun yo‘riqnomalar.

Ushbu platformadan ota-onalar, mahalla xotin-qizlar faollari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini mutasaddilari hamkorlikda o‘smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda foydalanishlari nazarda tutiladi.

Platformadan foydalanish 5 bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich: MOODLE tizimiga kirish


Kompyuter yoki smartfondagi ixtiyoriy brauzerning manzilga kiritish qatori yordamida mt.moiti.uz saytiga kiriladi (1-rasm).



I-rasm.
Onlayn platforma saytiga kirish oynasi.

2-bosqich: masofaviy ta’lim platforma interfeysi

Ushbu platformaning o‘ng tomonida joylashgan blokda foydalanuvchining “Login” va “Parol”i kursga kiriladi (2-rasm).



2-rasm. Foydalanuvchining shaxsiy ma’lumotlarini kiritish oynasi.

3-bosqich: platforma tarkibidagi “*Turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash*”, “*Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash*”, “*Turmush qurgan yosh kelinlarni oilaviy hayotga tayyorlash*” va “*Oila psixologiyasi*” nomli kurslari

mashg'ulotlari 40 soatga mo'ljallangan. Foydalanuvchi mashg'ulotlarni (30 soat nazariy va 10 soat amaliy) ketma-ketlikda o'zlashtiradi (3-rasm).

The screenshot shows a website interface for course offerings. There are four course cards displayed in a grid:

- Top Left:** TURMUSHGA CHOMIGA CHOMIGA OZLARNI TURMEHGA GLAGA JAMYANTSA TAYYORLASH
- Top Right:** MAKTAB YOSHIDAGI QIZLAR BILAN ISHLASH
- Bottom Left:** TURMUSH QURGAN YOSH KELNLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI
- Bottom Right:** OILA PSIXOLOGIYASI

A red arrow points to the first course card ('Top Left'). A blue rectangular box highlights the title and description area of this specific card.

3-rasm. O'quv kurslari nomlari.

4-bosqich: foydalanuvchi har bir mavzuni o'zlashtirishi uchun 1 kun (24 soat) vaqt beriladi (4-rasm).

The screenshot shows a detailed view of a course titled '1-Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLARNI QO'llLAB-QUVVATLASH, OILA INSTITUTINI MUSTASHRIKASHTI A YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN DAVLAT SIYOSATINING MAZUUN VA MOHYATI.'. The page includes a sidebar with navigation links and a main content area with course descriptions and user interaction options.

4-rasm. O'quv kurslari mavzulari.

5-bosqich: barcha mavzularni o'zlashtirgan foydalanuvchi yakuniy test topshiradi (5-rasm) va qoniqarli darajada test topshirgan foydalanuvchiga sertifikat beriladi.

The screenshot shows a web browser window with a blue header bar. The title bar says 'TOHQI: Yakunly test'. Below it, there's a toolbar with icons for back, forward, search, and other functions. The main content area has a green header 'TURMUSHGA CHIQMAGAN ...'. Below that, there's a breadcrumb navigation bar with links: 'Home', 'Uy sanferim', 'Kursler', 'TOHQI', 'YAKUNLY TEST', and 'Yakunly test'. A red arrow points to the 'Yakunly test' link. To the right of the breadcrumb, there's a sidebar titled 'Navigatsiya' with a tree view of the site's structure. At the bottom of the page, there's a footer with some text and links.

Xulosa. O’smir-yoshlar hayotda uchrab turadigan murakkabliklar yechimini o’z mehnati, iroda va bilimi, ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolayotgan oila ma’naviyati va an’analarini o’zlarida mujassam qilib, ularni o’z hayotida to‘laqonli tatbiq eta olishlari lozim. Oilaviy hayotga tayyorlanayotgan o’smirlardan ro‘zg’orning past-balandliklariga g‘oyat chidamli, qanoatli, aqli, uzoqni ko‘ra biladigan, o’tkir mulohazali, o’zini har qanday sharoitda ham tuta biladigan, duch kelgan qiyinchiliklarni yengish qobiliyatiga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Bu borada quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiqdir:

— o’smirlarni oilaga tayyorlash borasida oila, mahalla va maktabning uzviyigini ta’minlash orqali zarur psixologik, ma’naviy, huquqiy saboqlarni zamonaviy talablar asosida kuchaytirish. Shu maqsadda umumta’lim maktablarida “Oila etikasi va psixologiyasi” predmeti o’qitilishini joriy etish;

— o’smirlarning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda oila va nikoh haqidagi bilimlarni shakllantirish jarayonini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish va uning faoliyat mexanizmi hamda aniq va sodda metodikasini ishlab chiqish;

— o’smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila qurish mas’uliyatini to‘la anglashlari bo‘yicha yoshiga mos ravishda amaliy psixologik tavsiyanomalar, yo‘riqnomalar, tarqatma materiallar, ijtimoiy reklama roliklarini ishlab chiqish;

— o’smirlarga mazkur ma’lumotlarni innovatsion texnologiyalarining so‘nggi usul va shakllari imkoniyatlaridan foydalangan holda yetkazish. Buning uchun umumta’lim muassasalarida “Yoshlarni oilaga tayyorlash” innovatsion to‘garaklari faoliyatini yuritish. “Oila maktabi” elektron platformasini tashkil etish;

— o’smirlarga mos ravishda sog‘lom turmushni shakllantirish, ongli yosh ota-onalikka tayyorlash, oilaviy munosabatlarni mustahakamlash uchun shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va tatbiq etish.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so‘zlagan nutqidan. 2018 yil 19 sentyabr. — URL: <http://jarchi.kz/bola-tarbiyasi-va-ota-onaning-obrusi/>
2. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Бахтиёр оила. — Тошкент: Hilol-Nashr, 2013. — 504 б.
3. Турсунхўжа Хидоятхўжаев. Фарзандлар жаннат раҳонларидир. — Т.: Янги аср авлоди, 2002. — 158 б.
4. Юсуф Ҳос Ҳожиб. Қутадгу билиг. — Т.: Фан, 1948. — 965 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. — Т.: Ўзбекистон, 2016. — 56 б.
6. Зритнева Е.И. Сем'еведение / Е.И. Зритнева, Н.П. Клушина. — М.: ВЛАДОС, 2016. — 246 с.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Зебунисо-Конигил / 4-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва б. — Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. — 169 б.
8. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). — Т.: “Истеъдод” жамгармаси, 2008. — 115 б.
9. Шоумуров Ф.Б., Мухаммедов К.С., Салихов Г.Ў., Шамансуров С.Ш., Назаров А., Ўқитувчилар учун информацион материал. Камилов А.И умумий таҳрири остида. 2-нашр. — Т., 2003, 96 б.

References

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so‘zlagan nutqidan. 2018 yil 19 sentyabr* (From the speech of the president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 72 sessions of the UN General Assembly. September 19, 2018), available at: <http://jarchi.kz/bola-tarbiyasi-va-ota-onaning-obrusi/>
2. *Shaikh Mukhammad Sodik Mukhammad Yusuf. Bakhtier oila* (Happy family), Tashkent: Hilol-Nashr, 2013, 504 p.
3. *Tursunkhuzha Khidoyatkuzhaev. Farzandlar zhannat raixonlaridir* (Children are Paradise basil), Tashkent: Yangi asr avlodи, 2002, 158 p.
4. *Yusuf khos Hjozhib. Kutadgu bilig*, Tashkent: Fan, 1948, 965 p.
5. *Mirzieev Sh.M. Erkin va farovon demokratik Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз* (Together we will build a free and prosperous democratic state of Uzbekistan), Tashkent: Uzbekistan, 2016, 56 p.
6. *Zritneva E.I. Sem'ovedenie* (Family studies), Moscow: VLADOS, 2016, 246 p.
7. *Uzbekiston millii entsiklopediyasi* (National Encyclopedia of Uzbekistan), Volume 4, Tashkent, 2002, 169 p.
8. Ishmukhamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. “Ta“limda innovatsion tekhnologiyalar” (ta“lim muassasalari pedagog ukituvchilari uchun amalii tavsiyalar) (“Innovative technologies in education” (Practical Recommendations for Pedagogical Teachers of Educational Institutions)), Tashkent, 2008, 115 p.
9. Shoumurov G.B., Mukhammedov K.S., Salikhov G.U., Shamansurov S.Sh., Nazarov A., *Ukituvchilar uchun informatsion material* (Informational material for teachers), Tashkent, 2003, 96 p.